



INNOVATION IQTISODIYOT

Ilmiy-amaliy elektron jurnal

2026

№9

ИННОВАЦИОННАЯ ЭКОНОМИКА

Научно-практический электронный журнал

INNOVATIVE ECONOMY

Scientific and practical electronic journal



Indexlanadigan bazalar: Google Scholar



Crossref



OpenAIRE



CYBERLENIKA



INNOVATION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY
ELEKTRON JURNAL

9-jild
9-son
Sentyabr, 2026

September, 2026
Volume 9
Number 9

ИННОВАЦИОННАЯ
ЭКОНОМИКА
Научно-практический
электронный журнал

INNOVATIVE ECONOMY
Electronic scientific and
practical journal



INNOVATSION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY ELEKTRON JURNAL

ISSN: 3030-315X

globalsciencehub.uz

Muassis:

Qarshi davlat texnika universiteti

Tahririyat Kengashi raisi:

R.X.Ergashev, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Tahririyat Kengashi raisi o‘rinbosari:

S.N.Xamrayeva, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Mas’ul muharrir:

N.A.Ochilova, PhD, dotsent

Texnik muharrir:

S.J.Qulmurotov

Jurnal har oyda bir marotaba elektron shaklda jurnalning rasmiy sayti orqali nashr etiladi.

Tahririyat manzili:

180100, Qarshi shahri, Mustaqillik ko‘chasi 225-uy Tel.:

+998 (75) 221 09 23

+998 (93) 902 72 63

Faks: +998 (75) 221 1395

innoeconomic@kstu.uz

“Innovatsion iqtisodiyot” ilmiy - amaliy elektron jurnali O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2025-yil 5-apreldagi 369-sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

Jurnalda quyidagi ruknlar asosida maqolalar nashr etiladi:

1. Nazariya va metodologiya
2. Raqamli iqtisodiyot
3. Mintaqa va tarmoqlar iqtisodiyoti
4. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik
5. Inson kapitali iqtisodiyoti
6. Menejment va marketing
7. Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
8. Moliya, kredit va investitsiya
9. Ekonometrika va statistika
10. Xizmat ko‘rsatish va turizm sohasi

TAHRIRIYAT KENGASHI:

Tahririyat Kengashining xalqaro a'zolari:

Ovchinnikov Viktor Nikolayevich - i.f.d., professor, akademik (Janubiy Federal Universitet, Rossiya)

Solodovnikov Sergiy Yurevich - i.f.d., professor (Belorussiya milliy texnika universiteti)

Sidorov Viktor Aleksandrovich - i.f.d., professor, (Kuban davlat universiteti)

Shevchenko Igor Viktorovich - i.f.d., professor (Kuban davlat universiteti, Rossiya)

Kusainov Xalel Xaymullievich - i.f.d., professor, akademik (Qozog‘iston Respublikasi Milliy fanlar akademiyasi)

Samandarzoda Iskandar Hakim - Iqtisodiyot fanlari doktori (Sh.Shotemur nomidagi Tojikiston agrar universiteti)

Gibadullin Artur Arturovich - i.f.n. dotsent (Milliy tadqiqot universiteti, Moskva energetika instituti, Rossiya)

Sergey Aleksandrovich Voynash - ilmiy xodim (P.Lumumbi nomidagi Rossiya xalqlar do‘stligi universiteti)

Valentina Nikolayevna Pulyayeva - iqtisod fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya Federatsiyasi hukumati qoshidagi Moliya universiteti)

Dmitriy Evgenievich Morkovkin, iqtisod fanlari nomzodi, dotsent (Moliya universiteti, Rossiya Federatsiyasi hukumati)

Sadriddinov Manuchehr Islomiddinovich - i.f.d., professor, (Tojikiston Respublikasi Milliy fanlar Akademiyasi)

Perskaya Viktoriya Vadimovna - i.f.d., professor, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)

Molchanov Igor Nikolayevich - i.f.d., professor, (Lomonosov nomidagi Moskva davlat universiteti)

Basova Mariya Mixaylovna - i.f.d., professor, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)

Aleksandr Leonidovich Chupin, iqtisod fanlari nomzodi (P.Lumumbi nomidagi Rossiya xalqlar do‘stligi universiteti)

Nezamaykin Valeriy Nikolayevich - i.f.d., professor, (Rossiya davlat gumanitar universiteti)

Nikonorova Alla Vladimirovna - i.f.n., dotsent, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)

Dmitriyeva Olga Aleksandrovna - i.f.n., dotsent, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)

Shvets Yuriy Yuryevich - i.f.n., dotsent, (Rossiya Fanlar akademiyasining Nazorat fanlari instituti)

Kolosova Yelena Valeryevna - i.f.n., dotsent, (Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti)

Tahririyat Kengashi a'zolari:

Gulyamov Saidaxror Saidaxmedovich - i.f.d., professor, akademik

Pardayev Mamayunus Qarshiboyevich - i.f.d., professor

Navruz-zoda Baxtiyor Negmatovich - i.f.d., professor

Xatamov Ochildi Qurbonovich - i.f.d., professor

Fayziyeva Shirin Shodmonovna - i.f.n., professor

Jumayeva Gulrux Jo‘raqulovna - i.f.n., professor

Egamberdiyeva Salima Raimovna - i.f.n., dotsent

Erkayeva Gulbahor Panjiyevna - i.f.n., professor

Yakubova Shamshinur Shuxratovna - i.f.d., (DSc) dotsent

Amirqulov Shuhrat Olimovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Samiyeva Gulnoza Toxirovna - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Aliqulov Azamat Tuyg‘unovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Aminov Fazlitdin Baxadirovich - i.f.n., dotsent

Xo‘jaqulova Nigora Rustamovna - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Turobov Sherzod Alisherovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Alimova Munisa Yulchiyevna - i.f.f.d. (PhD) dotsent

Ergasheva Nasiba Raxmatullayevna - i.f.d., (DSc), dotsent

Boboqulov Sanjar Baxromkulovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Djalilov Raxmonkul Hamidovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Nomazov Baxrom Bobomurodovich - i.f.f.d. (PhD) dotsent

Alimxanova Nigora Alimxanovna - i.f.f.d. (PhD) dotsent

Jonuzokov Mirzabek Kulmamatovich - i.f.f.d. (PhD), dotsent

Muxammadiyeva Yulduz Yusupovna - i.f.f.d. (PhD)

Tursunova Aziza Xoshimovna - i.f.f.d. (PhD)

Xolliyev Sherali Baxtiyorovich - i.f.f.d. (PhD)

Panjiyev Samijon Aliqulovich - PhD, dotsent



ИННОВАЦИОННАЯ ЭКОНОМИКА

Научно-практический электронный журнал

ISSN: 3030-315X

globalsciencehub.uz

Учредитель:

Каршинский государственный технический университет

Председатель редакционного совета:

Р.Х.Эргашев, доктор экономических наук, профессор

Заместитель председателя редакционного совета:

С.Н.Хамраева, доктор экономических наук, профессор

Ответственный редактор:

Н.А.Очилова, PhD, доцент

Технический редактор:

С.Ж.Кулмуротов

Журнал издается один раз в месяц в электронной форме и публикуется через официальный сайт журнала.

Адрес редакции:

180100, г. Карши, ул. Мустакиллик, дом 225

Тел: +998 (75) 221 09 23

+998 (93) 902 72 63

Факс: +998 (75) 221 1395

E-mail: innoeconomic@kstu.uz

Научно-практический электронный журнал «Инновационная экономика» включён в перечень национальных научных изданий на основании решения Президиума Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан от 5 апреля 2025 года № 369.

В журнале публикуются статьи по следующим рубрикам:

1. Теория и методология
2. Цифровая экономика
3. Экономика регионов и отраслей
4. Малый бизнес и частное предпринимательство
5. Экономика человеческого капитала
6. Менеджмент и маркетинг
7. Бухгалтерский учет, экономический анализ и аудит
8. Финансы, кредит и инвестиции
9. Эконометрика и статистика
10. Сфера услуг и туризм

Редакционная коллегия:

Международные члены Совета редколлегии:

Овчинников Виктор Николаевич - д.э.н., профессор, академик (Южный федеральный университет, Россия)

Солодовников Сергей Юрьевич - д.э.н., профессор (Белорусский национальный технический университет)

Виктор Александрович Сидоров - д.э.н., профессор, (Кубанский государственный университет)

Шевченко Игорь Викторович - д.э.н., профессор (Кубанский государственный университет)

Кусаинов Халел Хаймуллович - д.э.н., профессор, академик (НААН Республика Казахстан)

Самандарзода Искандар Хаким - д.э.н., профессор (Таджикистанский аграрный университет им. Ш. Шотемура)

Гибатуллин Артур Артурович - к.э.н., доцент (Национальный исследовательский университет «Московский энергетический институт»)

Войнаш Сергей Александрович - научный сотрудник (Российского университета дружбы народов имени П.Лумумби)

Пуляева Валентина Николаевна - к.э.н., доцент (Финансовый университет при Правительстве РФ)

Морковкин Дмитрий Евгеньевич - к.э.н., доцент (Финансовый университет Правительство РФ)

Садриддинов Манучехр Исламиддинович - д.э.н., профессор (Национальная академия наук Республики Таджикистан)

Перская Виктория Вадимовна - д.э.н., профессор (Финансовый университет при Правительстве РФ)

Молчанов Игорь Николаевич - д.э.н., профессор (Московский государственный университет имени М.В. Ломоносова)

Басова Мария Михайловна - д.э.н., профессор (Финансового университета Российской Федерации)

Чупин Александр Леонидович - к.э.н. (Российского университета дружбы народов имени П. Лумумби)

Незаймакин Валерий Николаевич - д.э.н., профессор (РГТУ)

Никонорова Алла Владимировна - к.э.н., доцент (Финансового университета Российской Федерации)

Дмитриева Ольга Александровна - к.э.н., доцент (Финансового университета Российской Федерации)

Швец Юрий Юрьевич - к.э.н., доцент (Институт проблем управления РАН)

Колосова Елена Валерьевна - к.э.н., доцент (Российский экономический университет имени Г.В. Плеханова)

Члены Совета редколлегии:

Гулямов Саидхорр Саидхмедович - д.э.н., профессор, академик

Пардаев Мамаюнус Каршибоевич - д.э.н., профессор

Навруз-зода Бахтиёр Негматович - д.э.н., профессор

Хатамов Очилди Курбанович - д.э.н., профессор

Файзиева Ширин Шодмоновна - к.э.н., профессор

Жумаева Гулрух Журакуловна - к.э.н., профессор

Эгамбердиева Салима Раимовна - к.э.н., доцент

Еркаева Гулбахор Панжиевна - к.э.н., профессор

Якубова Шамина Шухратовна - д.э.н., (DSc), доцент

Амиркулов Шухрат Олимович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Самиева Гулноза Тохировна - д.ф.э.наук., (PhD), доцент

Алигулов Азамат Туйгунович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Аминов Фазлитдин Бахадирович - к.э.н., доцент

Хужакулова Нигора Рустамовна - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Туробов Шерзод Алишерович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Алимова Муниса Юльчиевна - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Эрашьева Насиба Рахматуллаевна - д.э.н., (DSc), доцент

Бобокулов Санжар Бахромкулович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Джалилов Рахмонкул Хамидович - д.ф.э., (PhD), доцент

Номазов Бахром Бобомуродович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Алимханова Нигора Алимхановна - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Джанузакوف Мирзабек Кулмаматович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Мухаммадиева Юлдуз Юсуповна - д.ф.э.н., (PhD)

Турсунова Азиза Хошимовна - д.ф.э.н., (PhD)

Холлиев Шерали Бахтиёрович - д.ф.э.н., (PhD)

Панджиев Самиджон Аликулич - PhD, доцент



XIZMATLAR SOHASI SAMARADORLIGI VA UNING AHOLI FAROVONLIGIGA TA'SIRINI KUCHAYTIRISH YO'LLARI

Raximov Zafar Komilovich

ПУТИ ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ СФЕРЫ УСЛУГ И УСИЛЕНИЯ ЕЁ ВЛИЯНИЯ НА БЛАГОСОСТОЯНИЕ НАСЕЛЕНИЯ

Рахимов Зафар Комилович

WAYS TO IMPROVE THE EFFICIENCY OF THE SERVICE SECTOR AND STRENGTHEN ITS IMPACT ON POPULATION WELFARE

Raximov Zafar Komilovich

Annotatsiya: Maqolada xizmatlar sohasi samaradorligi va uning aholi farovonligiga ta'sirini kuchaytirish yo'llari haqida nazariy hamda amaliy yondashuvlar yoritib berilgan. Ma'lumotlar muallifning kuzatuvlari va adabiyotlar tahlili asosida tuzildi.

Kalit so'zlar: Ijtimoiy-iqtisodiy siyosat, aholi farovonligi, xizmatlar sohasi, globallashuv, strategiya, inson salohiyati, kambag'allikni qisqartirish, yoshlarga oid davlat siyosati, barqaror iqtisodiy o'sish, samaradorlik, samara, barqaror rivojlanish.

Аннотация: В статье рассматриваются теоретические и практические подходы к повышению эффективности сферы услуг и ее влияния на благосостояние населения. Информация основана на наблюдениях автора и анализе литературы.

Ключевые слова: Социально-экономическая политика, благосостояние населения, сфера услуг, глобализация, стратегия, человеческий потенциал, сокращение бедности, государственная молодежная политика, устойчивый экономический рост, эффективность, результативность, устойчивое развитие.

Abstract: The article highlights theoretical and practical approaches to the effectiveness of the services sector and ways to strengthen its impact on the well-being of the population. The data was compiled on the basis of the author's observations and literature analysis.

Keywords: Socio-economic policy, population welfare, service sector, globalization, strategy, human potential, poverty reduction, youth policy, sustainable economic growth, efficiency, effectiveness, sustainable development.

KIRISH

Xizmatlar sohasining istiqboldagi rivojlanishini aholi farovonligini oshirish maqsadlari bilan bog'lashda sohaning faqat miqdoriy kengayishiga tayanish yetarli emas. Xizmatlar hajmi, xizmat ko'rsatuvchi subyektlar soni va bozor aylanmasining o'sishi iqtisodiy faollikning kengayganligini ifodalasa-da, ushbu natijalarning aholi daromadlari, sifatli bandlik, xizmatlardan foydalanish imkoniyati va hayot sifatiga qanday ta'sir ko'rsatayotgani yakuniy samaradorlikni belgilaydi. Shu sababli istiqbolda xizmatlar sohasini rivojlantirishda miqdoriy o'sish bilan bir qatorda mehnat unumdorligi, yuqori qo'shilgan qiymat, xizmat sifati, hududiy mavjudlik va farovonlik natijasiga ustuvor ahamiyat berish zarur.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Xizmatlar iqtisodiyotining nazariy asoslari ko'plab xorijiy va mahalliy tadqiqotlarda yoritilgan. J. Clark tomonidan ilgari surilgan "Service Economy" konsepsiyasida xizmatlar sektori ishlab chiqarishdan ustun bo'lgan postindustrial iqtisodiyot modeli sifatida talqin qilinadi. P. Drucker o'zining innovatsion menejment nazariyasida xizmatlar tarmog'ini iqtisodiy o'sishning asosiy omili — bilim, texnologiya va inson kapitali uyg'unligi bilan izohlaydi. Shuningdek, xizmatlar sohasining ilmiy asoslarini xorijiy olimlardan V.V. Kulibanova, K.X. Haqsever, B.R. Render, R.S. Rassel, R.G. Merdik, V.K. Romanovich, S.N. Korobkova, V.I. Kravchenko, S.V. Orlov, I.P. Pavlova va boshqalar keng tadqiq etganlar. Ularning ishlari



xizmatlar menejmenti, operatsion boshqaruv, iste'molchilar xulq-atvori va xizmat sifati modellarning shakllanishiga asos bo'lgan. O'zbekiston olimlari ham bu yo'nalishda salmoqli ilmiy izlanishlar olib borishgan. Jumladan, M.Q. Pardayev, M.E. Po'latov, M.M. Muhammedov, D.R. Zaynalov, I.S. Tuxliyev, Q.J. Mirzayev, D.X. Aslanova, G. Shodiyeva, Sh.O. Quvondiqov kabi olimlarning tadqiqotlari xizmat ko'rsatish tarmoqlarining mintaqaviy rivojlanishi, bandlik darajasiga va aholi daromadlariga ta'siri, xizmatlar eksportining iqtisodiy samaradorligi masalalariga bag'ishlangan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida induksiya va deduksiya, ilmiy abstraktlash, tizimli va qiyosiy tahlil, monografik hamda ekspert baholash usullaridan foydalanilgan. Ushbu usullar xizmatlar sohasi samaradorligi va uning aholi farovonligiga ta'sirini kuchaytirish yo'llarining mohiyati, tavsifi va tasniflanishining nazariy jihatlarini yoritib berishga yordam beradi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Avvalgi tahlillar O'zbekistonda xizmatlar sohasining iqtisodiy ko'lami sezilarli kengayganini ko'rsatdi. Xususan, bozor xizmatlari hajmi 2015-yildagi 78 530,4 mlrd so'mdan 2024-yilda 840 146,5 mlrd so'mga yetib, 10,7 baravar oshgan. Xizmatlar sohasida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat 2024-yilda 711 294,3 mlrd so'mni, uning jami yalpi qo'shilgan qiymatdagi ulushi esa 48,2 foizni tashkil etgan. Bu xizmatlarning milliy iqtisodiyotdagi mavqei kuchayib borayotganini ko'rsatadi.

Biroq keyingi bosqichdagi asosiy vazifa xizmatlar hajmini shunchaki ko'paytirish emas, balki xizmatlar tarkibining sifat jihatdan o'zgarishini ta'minlashdan iborat. Chunki xizmatlarning turli yo'nalishlari yaratiladigan qo'shilgan qiymat, mehnat unumdorligi va aholi daromadlariga ta'siri bo'yicha bir xil imkoniyatga ega emas. Shu jihatdan yuqori malaka, bilim, texnologiya va intellektual mehnatga asoslangan xizmatlarni rivojlantirish xizmatlar sohasining iqtisodiy samaradorligini oshirishning muhim istiqbolli yo'nalishi hisoblanadi.

Bunday xizmatlar tarkibiga axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, moliyaviy, professional va biznes xizmatlari, konsalting, muhandislik, logistika, zamonaviy ta'lim, tibbiyot, ilmiy-texnik hamda kreativ xizmatlarni kiritish mumkin. Mazkur xizmatlarning rivojlanishi nafaqat xizmatlar sohasida yuqori qo'shilgan qiymat yaratadi, balki boshqa iqtisodiy faoliyatlarning samaradorligiga ham ta'sir ko'rsatadi. Masalan, professional va konsalting xizmatlari tadbirkorlik subyektlarining boshqaruv samaradorligini oshirsa, logistika xizmatlari mahsulotni ishlab chiqaruvchidan iste'molchiga yetkazish bilan bog'liq vaqt va xarajatlarni kamaytiradi. Raqamli xizmatlar esa turli tarmoqlardagi biznes jarayonlarini tezlashtirish imkonini beradi.

Yuqori qo'shilgan qiymatli xizmatlarning aholi farovonligiga ta'siri, eng avvalo, mehnat unumdorligi va sifatli bandlik orqali namoyon bo'ladi. Bilim va yuqori malakaga asoslangan xizmatlarda xodimning kasbiy tayyorgarligi, raqamli ko'nikmalari va innovatsion

imkoniyatlari asosiy iqtisodiy resursga aylanadi. Natijada xizmatlar sohasida yuqori unumdor va nisbatan yuqori daromadli ish o'rinlarini shakllantirish imkoniyati kengayadi.

Sifatli bandlikning kengayishi esa aholining mehnat daromadlarini oshirish va barqaror daromad manbalarini shakllantirish imkonini beradi. Daromadlarning o'sishi uy xo'jaliklarining faqat kundalik iste'molini emas, balki ta'lim, sog'liqni saqlash, madaniyat, sport va boshqa inson kapitalini rivojlantiruvchi xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini ham kengaytiradi. Shu tariqa yuqori qo'shilgan qiymatli xizmatlarning rivojlanishi iqtisodiy natijadan aholi farovonligiga o'tuvchi izchil bog'liqlikni shakllantiradi.

Bu bog'liqlikni izchil jarayon sifatida quyidagicha tavsiflash mumkin:

- yuqori qo'shilgan qiymatli xizmatlarning rivojlanishi, avvalo, mehnat unumdorligining oshishiga olib keladi;

- bu, o'z navbatida, sifatli va yuqori daromadli bandlikning shakllanishini ta'minlaydi;

- bandlik va daromadning oshishi aholi daromadlarining o'sishida namoyon bo'ladi;

- daromadlarning ko'payishi esa iste'mol imkoniyatlari va inson kapitaliga qo'yiladigan xarajatlarning kengayishiga, yakunida esa aholi farovonligining oshishiga xizmat qiladi.

1-rasmda keltirilgan bog'liqlik xizmatlar sohasining istiqboldagi samaradorligini faqat yaratilayotgan xizmatlar hajmi bilan emas, balki ushbu xizmatlarning qanday iqtisodiy va ijtimoiy natija berishi bilan baholash zarurligini ko'rsatadi. Bunda yuqori qo'shilgan qiymat yaratilishi boshlang'ich iqtisodiy natija bo'lsa, uning aholi farovonligiga yetib borishi mehnat unumdorligi, sifatli bandlik va daromadlarning oshishi orqali ta'minlanadi.

Mazkur jarayonda inson kapitali alohida o'rin tutadi. Bir tomondan, yuqori qo'shilgan qiymatli xizmatlarning rivojlanishi malakali mutaxassislariga talabni oshiradi va aholining bilim hamda kasbiy ko'nikmalarini rivojlantirishga rag'bat yaratadi. Ikkinchi tomondan, inson kapitalining yuqori darajasi xizmatlar sohasining o'zida mehnat unumdorligi, xizmat sifati va innovatsion faollikning oshishiga xizmat qiladi. Shu sababli xizmatlar sohasi samaradorligi va inson kapitali o'rtasidagi bog'liqlik ikki tomonlama xususiyatga ega.


Istiqbolda axborot-kommunikatsiya xizmatlari ushbu jarayonni tezlashtiruvchi muhim omillardan biri bo'lishi mumkin. AKT xizmatlari mustaqil ravishda yuqori qiymat yaratish bilan birga savdo, transport, moliya, turizm, ta'lim, sog'liqni saqlash va professional xizmatlarning samaradorligini oshirish uchun ham texnologik asos yaratadi. Shu bois raqamlashtirish xizmatlar sohasining alohida segmenti sifatida emas, balki uning boshqa yo'nalishlarini transformatsiya qiluvchi omil sifatida qaralishi lozim.

Professional va biznes xizmatlarini kengaytirish ham iqtisodiy samaradorlikni oshirish uchun muhim. Konsalting, buxgalteriya, huquqiy, marketing, muhandislik, dizayn va boshqa professional xizmatlarning rivojlanishi ayniqsa kichik va o'rta biznes



subyektlarining tashqi malakali resurslardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytiradi. Natijada mazkur xizmatlarning samarasi faqat ularning o'zida yaratilgan

qo'shilgan qiymat bilan cheklanmay, iqtisodiyotning boshqa faoliyat turlaridagi unumdorlikning oshishida ham namoyon bo'ladi.



1-rasm. Yuqori qo'shilgan qiymatli xizmatlarning aholi farovonligiga ta'sir yo'nalishlari³

Logistika xizmatlarining rivojlanishi esa hududlararo iqtisodiy aloqalarni mustahkamlash, mahsulot va xizmatlarning bozorga chiqish xarajatlarini kamaytirish hamda tadbirkorlarning savdo geografiyasini kengaytirish imkonini beradi. Ayniqsa, transport-logistika imkoniyatlari yuqori hududlarda saqlash, qadoqlash, ombor, yetkazib berishni boshqarish va raqamli logistika xizmatlarini rivojlantirish qo'shimcha iqtisodiy samara yaratishi mumkin.

Bunda yuqori qo'shilgan qiymatli xizmatlarni barcha hududlarda bir xil tarkibda rivojlantirish maqsadga muvofiq emas. Ularning yo'nalishi hududning iqtisodiy ixtisoslashuvi, inson kapitali, mavjud infratuzilmasi va bozor talabiga mos shakllantirilishi lozim. Yirik iqtisodiy markazlarda AKT, moliya va professional xizmatlar, tarixiy-madaniy salohiyatga ega hududlarda turizm bilan bog'liq kreativ va professional xizmatlar, sanoat hududlarida muhandislik, texnik servis va logistika xizmatlarini rivojlantirish ko'proq natija berishi mumkin – bu istiqbolda xizmatlar sohasini tarkibiy rivojlantirishning asosiy maqsadini “ko'proq xizmat” tamoyilidan “yuqori qiymat yaratuvchi, sifatli bandlikni shakllantiruvchi va farovonlikka kuchliroq ta'sir ko'rsatuvchi xizmatlar” tamoyiliga o'tish sifatida belgilash zarurligini yana bir bor tasdiqlaydi.

Biroq yuqori qo'shilgan qiymatli xizmatlarning rivojlanishi o'z-o'zidan aholining barcha qatlamlari uchun xizmatlardan foydalanish imkoniyatini tenglashtirmaydi. Avvalgi tahlilda aholi jon boshiga bozor xizmatlari hajmi mamlakat bo'yicha sezilarli oshgan bo'lsa-da, hududlar kesimida katta tafovutlar saqlanib qolganligi aniqlangan. Demak, xizmatlar samaradorligining farovonlikka ta'sirini kuchaytirishning navbatdagi istiqbolli yo'nalishi raqamlashtirish orqali xizmatlarning hududiy mavjudligini kengaytirish bilan bog'liq.

Raqamlashtirish xizmatlar sohasining hududiy mavjudligini kengaytirish va xizmat ko'rsatish xarajatlarini kamaytirish imkonini beruvchi muhim istiqbolli yo'nalishlardan biridir. An'anaviy xizmat ko'rsatish modelida iste'molchi va xizmat ko'rsatuvchi subyektning bir hududda jismonan mavjud bo'lishi talab etilgan bo'lsa, raqamli texnologiyalar ushbu bog'liqlikni sezilarli darajada kamaytiradi. Masofaviy ta'lim, elektron bank xizmatlari, onlayn savdo, davlat xizmatlari, elektron maslahat, bron qilish va boshqa raqamli xizmatlar aholining xizmatdan foydalanish imkoniyatini yashash joyiga nisbatan kamroq bog'liq holga keltiradi.

³ Manba: tadqiqot natijalari asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.
<https://globalsciencehub.uz/index.php/IE/uz>



Bu ayniqsa qishloq va chekka hududlar uchun muhimdir. Aholisi tarqoq joylashgan hududlarda barcha xizmat turlari bo'yicha doimiy obyektlar tashkil etish iqtisodiy jihatdan yuqori xarajat talab qilishi mumkin. Raqamli yoki aralash xizmat ko'rsatish shakllari esa ayrim xizmatlarni markazlashtirilgan holda tashkil etib, ularni masofadan turib kengroq aholi qatlamiga yetkazish imkonini beradi. Natijada xizmat ko'rsatish tarmog'ini kengaytirish bilan bog'liq xarajatlarning bir qismi kamayishi, iste'molchining esa xizmat olish uchun sarflaydigan vaqt va transport xarajatlari qisqarishi mumkin.


Shu bilan birga, raqamlashtirish xizmatning faqat masofadan ko'rsatilishini emas, balki xizmat ko'rsatish jarayonining o'zini ham samaraliroq tashkil etish imkonini beradi. Elektron navbat, oldindan ro'yxatdan o'tish, raqamli to'lov, masofaviy buyurtma, mijoz bilan avtomatlashtirilgan aloqa va elektron hujjat almashinuvi xizmat ko'rsatish vaqtini qisqartirish va operatsion xarajatlarni kamaytirishga xizmat qiladi. Bunday tejamkorlikning bir qismi xizmat narxining maqbulligini ta'minlash yoki xizmat sifatini yaxshilashga yo'naltirilsa, raqamlashtirishning aholi farovonligiga ta'siri yanada kuchayadi.

Raqamli xizmatlarning yana bir muhim jihati iste'molchining tanlov imkoniyatini kengaytirishidir. An'anaviy bozorda aholi ko'pincha o'z yashash hududida mavjud bo'lgan xizmat ko'rsatuvchilar bilan cheklanadi. Raqamli platformalar esa turli xizmat ko'rsatuvchilarni taqqoslash, narx, sifat va foydalanuvchi baholari asosida tanlov qilish imkonini beradi. Bu xizmatlar bozorida raqobatni kuchaytirishi va xizmat ko'rsatuvchi subyektlarni sifatni oshirishga rag'batlantirishi mumkin.

Biroq raqamlashtirishning ijobiy ta'siri avtomatik tarzda yuzaga kelmaydi. Raqamli xizmatdan foydalanish uchun barqaror internet, texnik qurilma, tegishli raqamli ko'nikma va iste'molchining elektron xizmatga ishonchi zarur. Agar ushbu shartlardan biri yetarli bo'lmasa, raqamli xizmatlar mavjud bo'lgan taqdirda ham aholining ayrim guruhlari undan foydalana olmay qolishi mumkin. Aynan shu sababdan raqamlashtirish istiqbollari internet infratuzilmasi, raqamli savodxonlik va an'anaviy xizmat kanallarini saqlab qolish masalalari bilan birgalikda ko'rib chiqilishi lozim.

Ayniqsa keksa yoshdagi aholi, raqamli ko'nikmalari yetarli bo'lmagan shaxslar yoki texnik vositalardan foydalanish imkoniyati cheklangan uy xo'jaliklari uchun xizmatlarni faqat raqamli shaklga o'tkazish yangi turdagi tengsizlikni yuzaga keltirishi mumkin. Shu sababli istiqbolda "faqat raqamli" emas, balki "raqamli + an'anaviy" xizmat ko'rsatish modelini uyg'unlashtirish maqsadga muvofiq. Bunda elektron kanal xizmatdan foydalanishning qo'shimcha va qulay shakliga aylanishi, zarur hollarda esa iste'molchi an'anaviy xizmatdan ham foydalanish imkoniyatini saqlab qolishi lozim.

Xizmatlarni raqamlashtirishning farovonlikka ta'siri izchil jarayon sifatida quyidagicha namoyon bo'ladi: raqamli infratuzilmaning rivojlanishi, avvalo, xizmatlarning hududiy mavjudligini kengaytiradi; bu, o'z navbatida, xizmat olish uchun sarflanadigan vaqt va transport xarajatlarni qisqartiradi; xarajatlarning kamayishi esa xizmatlardan foydalanish imkoniyatini, ayniqsa qishloq va chekka hududlar aholisi uchun, kengaytiradi; bu jarayonlarning barchasi, zarur infratuzilmaviy va inson kapitali shartlari bajarilgan taqdirda, yakunida aholi farovonligining oshishiga xizmat qiladi.



2-rasm. Xizmatlarni raqamlashtirishning aholi farovonligiga ta'sir yo'nalishlari⁴

⁴ Manba: tadqiqot natijalari asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

<https://globalsciencehub.uz/index.php/IE/uz>



2-rasmda ifodalangan bog'liqlik raqamlashtirishni faqat texnologik yangilanish sifatida emas, balki xizmatlarning aholiga yetib borish imkoniyatini kengaytiruvchi iqtisodiy va ijtimoiy vosita sifatida qarash zarurligini ko'rsatadi. Bunda raqamli texnologiyani o'zi yakuniy maqsad hisoblanmaydi; uning samarasi xizmatdan foydalanish uchun sarflanadigan vaqt va xarajatlarni kamaytirishi, hududiy to'siqlarni yumshatishi va xizmat sifatini yaxshilashi bilan belgilanadi.

Shu jihatdan istiqbolda xizmatlarni raqamlashtirish natijadorligini faqat elektron xizmatlar soni yoki platformaga ulangan foydalanuvchilar bilan baholash yetarli emas. Baholashda aholining ushbu xizmatdan real foydalanganligi, xizmat olish vaqti va xarajatlardagi o'zgarish, xizmat qamrovining chekka hududlarda kengayishi hamda iste'molchi qoniqishidagi natijalarni hisobga olish zarur. Bu raqamlashtirishning texnologik natijasini uning farovonlikka ta'siri bilan bog'lash imkonini beradi.

Raqamlashtirish xizmatlarning hududiy mavjudligini oshirishi bilan birga, ularning sifati va narx maqbulligini yaxshilash vazifasini ham dolzarb qiladi. Chunki xizmatga kirish imkoniyati mavjud bo'lishi uning iste'molchi ehtiyojini sifatli va maqbul narxda qondirayotganini anglatmaydi. Tadqiqotning oldingi bosqichida xizmat sifati, narx maqbulligi, hududiy mavjudligi va aholi qoniqishini baholash yo'nalishining 52,00 ball bilan nisbatan past darajada shakllanganligi aynan ushbu yo'nalishda qo'shimcha zaxiralar mavjudligini ko'rsatgan.

Shu sababli xizmatlar sohasi samaradorligining aholi farovonligiga ta'sirini kuchaytirishning navbatdagi istiqbolli yo'nalishi xizmat sifati, narx maqbulligi va iste'molchi qoniqishini bir-biri bilan bog'liq holda oshirishdan iborat. Bunda asosiy e'tibor ko'rsatilgan xizmat hajmiga emas, xizmatdan foydalangan iste'molchi qanday natijaga ega bo'lganiga qaratilishi lozim.

Xizmat sifatini oshirish, birinchi navbatda, xizmat ko'rsatish jarayonining aniqligi, tezkorligi, ishonchiligi, xavfsizligi va iste'molchi uchun qulayligini ta'minlashni talab qiladi. Biroq xizmat turlarining xususiyati turlicha bo'lgani sababli sifat mezonlari ham bir xil bo'lishi mumkin emas. Tibbiy xizmatda davolashning natijadorligi va xavfsizlik, ta'lim xizmatida bilim va ko'nikmalarning shakllanishi, transportda muntazamlik va xavfsizlik, bank xizmatida ishonchlilik va tezkorlik, turizm esa xizmat ko'rsatish madaniyati va iste'molchi taassuroti ustuvor mezon bo'lishi mumkin.

Shu bois istiqbolda xizmatlar sifati monitoringini umumiy ko'rsatkichlardan xizmat turiga mos natijaviy sifat mezonlariga o'tkazish maqsadga muvofiq. Bu jarayonda xizmat ko'rsatuvchi subyektning o'z hisoboti bilan cheklanib qolmasdan, iste'molchilarning fikri, takroriy murojaatlar, shikoyatlar, xizmatdan qayta foydalanish holatlari va qoniqish darajasidan ham foydalanish zarur.

Aholi qoniqishini o'rganish xizmatlar sohasidagi muammolarni aniqlash uchun muhim qayta aloqa vositasi bo'lishi mumkin. Qoniqish darajasining pasayishi xizmatning sifatidagi muammo, narxning

yuqoriligi, ortiqcha kutish vaqti, hududiy noqulaylik yoki xodimlarning xizmat ko'rsatish madaniyati bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Aynan shu sababdan iste'molchilar fikrini muntazam o'rganish faqat nazorat vazifasini emas, balki xizmatni takomillashtirish uchun axborot manbai vazifasini bajarishi lozim.

Narx maqbulligini ta'minlash masalasi ham xizmatlar samaradorligining farovonlikka ta'sirida alohida ahamiyat kasb etadi. Xizmat sifatining oshishi ayrim hollarda qo'shimcha xarajatlarni talab qilishi mumkin, biroq xizmat narxining aholining real daromad imkoniyatlaridan uzilib ketishi uning mavjudligini iqtisodiy jihatdan cheklaydi. Demak, xizmat sifati va narx maqbulligini bir-biriga qarama-qarshi emas, balki "maqbul narxdagi sifatli xizmat" tamoyili asosida uyg'unlashtirish maqsadga muvofiq.

Olingan natijalarga tayangan holda, barcha xizmatlarning arzon bo'lishi talab etilmaydi. Professional, turistik yoki yuqori texnologik xizmatlarda yuqori sifat yuqoriroq narx bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Biroq ta'lim, sog'liqni saqlash, transport, kommunal va boshqa bazaviy xizmatlarda aholining asosiy qatlamlari uchun foydalanish imkoniyatini saqlash farovonlik nuqtayi nazaridan ustuvor vazifa hisoblanadi.

Biroq yuqori unumdor va yuqori daromadli bandlikning shakllanishi tegishli bilim, kasbiy malaka va raqamli ko'nikmalarga ega ishchi kuchisiz ta'minlanmaydi. Shu sababli xizmatlar sohasi samaradorligining aholi farovonligiga ta'sirini kuchaytirishning keyingi istiqbolli yo'nalishi inson kapitalini rivojlantirish va xizmatlar iqtisodiyoti ehtiyojlariga mos kompetensiyalarni shakllantirish bilan bog'liq.

Xizmatlar sohasida inson kapitalining ahamiyati uning ko'plab turlarida asosiy iqtisodiy resurs insonning bilimi, kasbiy mahorati va tajribasi ekanligi bilan belgilanadi. Ayniqsa, axborot-kommunikatsiya, moliya, tibbiyot, ta'lim, konsalting, muhandislik, turizm va boshqa professional xizmatlarda xodim malakasining oshishi xizmat sifati va mehnat unumdorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Shu bois istiqbolda kadrlar tayyorlash tizimini xizmatlar bozoridagi tarkibiy o'zgarishlar bilan yanada yaqin bog'lash zarur. Ta'lim va kasbiy tayyorlash dasturlarida faqat mavjud kasblarga emas, balki raqamlashtirish, sun'iy intellekt, elektron savdo, logistika, raqamli marketing, zamonaviy turizm, moliyaviy texnologiyalar va boshqa yangi xizmat yo'nalishlarida shakllanayotgan kompetensiyalarga ham e'tibor qaratilishi lozim.

Bunda oliy ta'lim, professional ta'lim, qayta tayyorlash va malaka oshirish tizimlari o'rtasidagi uzviylikni ta'minlash muhimdir. Chunki texnologik o'zgarishlar sharoitida bir marta olingan kasbiy bilim butun mehnat faoliyati davomida yetarli bo'lmaydi mumkin. Xizmatlar sohasida xodimlarning yangi texnologiyalar va iste'molchi talablariga moslashish qobiliyati mehnat unumdorligi va bandlik barqarorligini belgilovchi omillardan biriga aylanadi.

Aynan shu sababdan istiqbolda uzluksiz kasbiy rivojlanish tamoyilini xizmatlar sohasidagi bandlik siyosatining tarkibiy qismiga aylantirish maqsadga



muvofig. Xodimlarning qisqa muddatli kasbiy kurslar, qayta tayyorlash, raqamli ko'nikmalarni rivojlantirish va ish joyida malaka oshirish imkoniyatlarini kengaytirish ularning mehnat bozoridagi raqobatbardoshligini oshiradi.

Inson kapitalining yana bir muhim tarkibiy qismi aholining sog'lig'i hisoblanadi. Sifatli tibbiy xizmatlardan foydalanish imkoniyatining kengayishi mehnat qobiliyatini saqlash, vaqtinchalik mehnatga layoqatsizlik bilan bog'liq yo'qotishlarni kamaytirish va faol mehnat davrini uzaytirishga xizmat qiladi. Shu jihatdan sog'liqni saqlash xizmatlariga yo'naltirilgan resurslarni faqat ijtimoiy xarajat sifatida emas, balki inson kapitali va kelgusidagi mehnat unumdorligiga investitsiya sifatida ko'rib chiqish maqsadga muvofiq.

Demak, aytish joizki, xizmatlar sohasi va inson kapitali o'rtasida ham ikki tomonlama bog'liqlik shakllanadi: sifatli ta'lim va tibbiy xizmatlar inson kapitalini rivojlantiradi, rivojlangan inson kapitali esa xizmatlar sohasida mehnat unumdorligi, innovatsion faollik va xizmat sifatining oshishiga xizmat qiladi.

Xizmatlar sohasi samaradorligining aholi farovonligiga ta'sirini kuchaytirishda hududlar

o'rtasidagi xizmatlardan foydalanish imkoniyatlaridagi tafovutlarni qisqartirish muhim ahamiyatga ega. Bunda barcha hududlarda xizmatlar hajmini tenglashtirish emas, balki aholining zarur xizmatlardan hududiy va iqtisodiy jihatdan foydalanish imkoniyatini kengaytirish ustuvor vazifa bo'lishi lozim.

Ayniqsa, qishloq va chekka hududlarda doimiy obyekt, mobil xizmat va raqamli xizmat shakllarini uyg'unlashtirish maqsadga muvofiq. Bunday yondashuv transport, vaqt va boshqa xarajatlarni kamaytirish bilan birga ta'lim, tibbiyot, moliyaviy, maishiy va boshqa zarur xizmatlarning aholiga yaqinlashishiga xizmat qiladi.

Shu jihatdan hududiy samaradorlikni "xizmatning mavjudligi – undan foydalanish imkoniyati – foydalanish natijasi" ketma-ketligi asosida baholash taklif etiladi. Ya'ni xizmatning mavjudligi yetarli emas, undan aholi real foydalana olishi va mazkur xizmat uning ehtiyojini qondirish orqali farovonligiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi zarur.

Bu yondashuv xizmatlar sohasidagi hududiy rivojlanishni obyektlar sonidan aholining real foydalanish natijasiga yo'naltirish imkonini beradi.

1-jadval

Xizmatlar sohasi samaradorligining aholi farovonligiga ta'sirini kuchaytirishning istiqbolli yo'nalishlari⁵

T/r	Istiqbolli yo'nalish	Asosiy mazmuni	Xizmatlar sohasi samaradorligiga ta'siri	Aholi farovonligiga ta'siri
1	Yuqori qo'shilgan qiymatli xizmatlarni rivojlantirish	AKT, moliya, professional, logistika, ta'lim, tibbiyot va kreativ xizmatlarni kengaytirish	Mehnat unumdorligi va yaratilayotgan qo'shilgan qiymat oshadi	Yuqori daromadli va sifatli bandlik kengayadi
2	Xizmatlarni raqamlashtirish	Masofaviy, elektron va platforma xizmatlarini rivojlantirish	Xizmat ko'rsatish tezligi va qamrovi oshadi, xarajatlar kamayadi	Vaqt va transport xarajatlari qisqarib, xizmatlardan foydalanish imkoniyati kengayadi
3	Xizmat sifati va narx maqbulligini oshirish	Sifat monitoringi, iste'molchi fikri va qayta aloqa tizimini rivojlantirish	Xizmat ko'rsatish sifati va raqobatbardoshlik oshadi	Aholi qoniqishi va xizmatlardan real foydalanish darajasi ortadi
4	Sifatli bandlik va daromadlarni oshirish	Barqaror, rasmiy va yuqori unumdor ish o'rinlarini yaratish	Xizmatlar sohasida mehnat samaradorligi oshadi	Mehnat daromadlari va aholining to'lov qobiliyati ko'payadi
5	Inson kapitalini rivojlantirish	Kasbiy, raqamli va zamonaviy xizmat kompetensiyalarini shakllantirish	Malakali kadrlar va innovatsion faollik oshadi	Bandlik barqarorligi va daromad olish imkoniyatlari kengayadi
6	Hududiy tafovutlarni qisqartirish	Doimiy, mobil va raqamli xizmat shakllarini hududiy ehtiyojga moslashtirish	Xizmatlarning hududiy qamrovi kengayadi	Qishloq va chekka hududlarda xizmatlardan foydalanish imkoniyati yaxshilanadi

1-jadvalda keltirilgan istiqbolli yo'nalishlar xizmatlar sohasi samaradorligini aholi farovonligi bilan uzviy bog'lash imkonini beradi. Ularning umumiy xususiyati shundaki, barcha yo'nalishlarda iqtisodiy natija yakuniy maqsad sifatida emas, balki aholi hayot sifatini yaxshilashga xizmat qiluvchi vosita sifatida qaraladi. Shu sababli kelgusida xizmatlar sohasini

rivojlantirishda hajm va o'sish sur'atlari bilan bir qatorda mehnat unumdorligi, xizmat sifati, narx maqbulligi, hududiy mavjudlik, bandlik sifati va aholi qoniqishi kabi natijaviy ko'rsatkichlarni ham hisobga olish zarur.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Amalga oshirilgan tahlil asosida, xizmatlar sohasi samaradorligining aholi farovonligiga ta'sirini

⁵ Manba: tadqiqot natijalari asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

<https://globalsciencehub.uz/index.php/IE/uz>



kuchaytirish istiqbollari uchta asosiy tamoyil bilan izohlanadi. Birinchidan, xizmatlar tarkibini yuqori qo'shilgan qiymat yaratuvchi va malakali bandlikni shakllantiruvchi faoliyatlar hisobiga takomillashtirish zarur. Ikkinchidan, raqamlashtirish, sifatni oshirish va xizmatlarning hududiy mavjudligini kengaytirish orqali aholining xizmatlardan real foydalanish imkoniyatlarini yaxshilash lozim. Uchinchidan, xizmatlar sohasidagi iqtisodiy o'sishni barqaror daromad, inson kapitali va hayot sifati bilan bog'laydigan natijaviy yondashuvni kuchaytirish talab etiladi.

Bu istiqbolli yo'nalishlarning o'zaro uyg'unligi xizmatlar sohasida yaratilayotgan iqtisodiy qiymatning aholiga yetib borish samaradorligini oshiradi. Bunda yuqori mehnat unumdorligi sifatli bandlikni, sifatli bandlik barqaror daromadni, barqaror daromad esa sifatli xizmatlarga bo'lgan talab va inson kapitali rivojlanishini qo'llab-quvvatlaydi. Shu tariqa xizmatlar sohasi va aholi farovonligi o'rtasida uzoq muddatli, o'zaro kuchaytiruvchi bog'liqlik shakllanadi.

Tadqiqot natijalaridan kelib chiqib, xizmatlar sohasi samaradorligining aholi farovonligiga ta'sirini kuchaytirish istiqbollari xizmatlar hajmini oshirish bilan cheklanmasligi, balki yuqori qo'shilgan qiymat, sifatli va barqaror bandlik, raqamlashtirish, xizmat sifati va narx maqbuligi, inson kapitali hamda hududiy mavjudlikni birgalikda rivojlantirishga asoslanishi lozim. Bunda xizmatlar sohasining iqtisodiy natijalari aholining real daromadlari, xizmatlardan foydalanish imkoniyati va hayot sifatidagi ijobiy o'zgarishlar bilan baholanishi maqsadga muvofiq.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Котлер Ф., Армстронг Г., Сондерс Дж., Вонг В. Основы маркетинга. – М., СПб., К.: Издат. дом «Вильямс», 1999.-718 с.
2. Мак-Дональд М., Пэйн Э. Сфера услуг. Полное пошаговое руководство по маркетинговому планированию. – М.: КноРус, 2009.-448 с.
3. McConnell, Brue. Economics. 19 th edition. Mcgraw-hill/Irwin, USA, 2014. – 984 p.; N.Gregory Mankiw. Principles of Economics, 7th edition. Amazon, USA, 2014. – 880 p.

4. Мухаммедов М.М., Мардонов Б.Б. Хизмат кўрсатиш соҳасида аҳоли бандлиги ва даромадлари. Монография. «Инновацион ривожланиш нашриёт-матбаа уйи». 2021, 186 б.

5. Пардаев М.Қ. Хизматлар кўрсатиш тармоқлари иқтисодиётининг айрим муаммолари. – Т.: Наврўз, 2014. –264.

6. Мирзаев Қ.Д., Султонов Ш.А. ва бошқалар Хизматлар соҳаси иқтисодиёти. Дарслик. Самарқанд. САМИСИ, 2022. –251 б.

7. Shanazarov F. Ijtimoiy xizmatlarning inson kapitalini rivojlantirishdagi o'rni va ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotga ta'sir mexanizmlar // "Barqaror rivojlanish va yashil transformatsiyaning zamonaviy mexanizmlari" xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari. – Samarqand, 2026. DOI: 10.60078/2026-vol1-issT1-13.

8. Raximov Z. Ijtimoiy xizmatlarning aholi farovonligini ta'minlashdagi roli // Ilg'or iqtisodiyot va pedagogik texnologiyalar. – 2025. – Jild 2. – №3. – B. 13–17. DOI: 10.60078/3060-4842-2025-vol2-iss3-pp13-17.

9. <https://lex.uz/ru/docs/-6600413> – Qonunchilik ma'lumotlari milliy elektron bazasi.

10. www.stat.uz – O'zbekiston Respublikasi milliy statistika qo'mitasi sayti.

11. www.jmbm.uz – Journal of marketing, business and management (JMBM).

12. <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/> – Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot ilmiy-ommabop jurnali.

Muallif(lar) haqida / Сведения об авторе / Author details

Raximov Zafar Komilovich - Samarqand iqtisodiyot va servis instituti "Raqamli iqtisodiyot" kafedrası DSc mustaqil izlanuvchisi / Рахимов Зафар Комилович — независимый соискатель степени DSc кафедры «Цифровая экономика» Самаркандского института экономики и сервиса / Raximov Zafar Komilovich — Independent DSc Researcher, Department of Digital Economy, Samarkand Institute of Economics and Service.

E-mail: zafarrahimov022@gmail.com



INNOVATION
IQTISODIYOT
ILMIY-AMALIY ELEKTRON
JURNAL

ISSN: 3030-315X



t.me/kstu_uz



Qarshi shahri,
Mustaqillik ko'chasi 225



www.kstu.uz
www.ojs.kstu.uz